

## О‘QUVCHILARNING XALQ HUNARMANDCHILIGI BO‘YICHA KREATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

*O‘taboev B., Nurnazarov X.- o‘qituvchilar*

*A.Qodiriy nomidagi JDPU, Jizzax sh.*

**Annotatsiya:** Maqolada o‘quvchilarning kreativ ijodkorlik qobiliya tini rivojlantirish ketma-ketligi masalasiga asosiy e‘tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** kreativ, xalq hunarmandchiligi, ketma-ketlik, qobiliyat, ijodkorlik, yaratuvchanlik,

**Аннотация:** В статье рассматривается вопрос о последовательности развития способностей учащихся к творчеству.

**Ключевые слова:** творчество, народный промысел, последовательность, умение, творчество, творчество.

Zamonaviy xalq hunarmandchiligi taraqqiyoti-o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashdagi maqsadi, vazifasi va mazmunini bevosita qamrab oladigan ijodkorlik faoliyati bilan tavsiflanadi. Buni fan, texnika va ishlab chiqarishdagi o‘zgarishlarning uyg‘unlashib ketishi natijasida fan ning bevosita ishlab chiqarish kuchlariga aylanib ketishi, mehnat tur lari va mazmunining o‘zgarishi bilan bog‘liq. Unda yaratuvchan ijodkorlikning ahamiyati oshib ketganligi bilan asoslash o‘rinli. Bu esa, yoshlar ning kreativ ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish masalasiga jiddiy e‘tibor qaratishni takozo etadi.

Mazkur maqolada o‘quvchilarning kreativ ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish ketma-ketligi masalasiga asosiy e‘tibor qaratiladi.

O‘quvchilarni xalq hunarmandchilik bo‘yicha kreativlik qobiliyat larini rivojlantirish jarayoni hunarmandchilik tarmoqlari bo‘yicha ijodkorlikning turlari, shakllari va uni tashkil etish usullari, shuning dek o‘quvchilarni hunarmandchilik bo‘yicha ijodkorlikka tayyorlash nazariyasi va uning rivojlanish qonunlari hamda uning natijalarini amalga tadbiiq etish tamoyillarini nazarda tutadi va uning jarayoni ham xuddi boshqa pedagogik faoliyatlar singari falsafaning dialektik va tarixiy materializm qonunlariga asoslangan o‘zining maxsus yo‘nalishlariga ega va bu yo‘nalishga xususan quyidagilar kiradi:

- ijodkorlikda izlanish, intilish, tekshirish uslublari ilg‘or pedagoglar tajribasini o‘rganish va umumlashtirish masalalari tahlili;
- ijodkorlik masalalarini yechishning pedagogik asoslarini qiyosiy tahlil qilish;
- o‘quvchilarning xalq hunarmandchilikka oid yaratuvchan ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning ob‘ektiv tendensiyalari va qonuniyat larini aniqlash;
- aytilganlar asosida istiqbolli rejani belgilab olish va uni amalga oshirish.

Yaratuvchan ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish uzoq va murakkab jarayon bo'lgani uchun bu yo'nalishdagi ishlarga har bir fan o'qituvchisi o'z faoliyatining birinchi kunidanoq katta mas'uliyat bilan qarashi lozim bo'ladi. Xalq hunarmandchiligida o'quvchilar yaratuvchan ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish o'ziga asosiy uchta turdagi ijodkorlik masalasini qamrab oladi.

1. Hunarmandchilikda konstruksiya uyg'unligi masalalari. Bu masala: a) buyumning mustahkamligi, turg'unligi va ishonchliligini oshirishni; b) zararli ta'sir yoki hodisani bartaraf qilish usulini; v) buyumni tayyorlash bilan bog'liq uning shakli eng muvofiq bo'lishini, ularni mustahkamlash, materiallarni to'g'ri tanlash va zarur bo'lganda boshqasiga almashtirish kabi ishlarni to'g'ri aniqlashni; g) buyumni ishlatishga qulay, estetik yuqori va yengil bo'lishi uchun o'zgartirishlar kiritishlarni nazarda tutadi.

2. Texnologik masalalar. Bu masala: a) belgilab olish va nazorat qilishning eng muvofiq usullarini tanlashni; b) qiyin operatsiyalarni bajarishni yengillashtirishni, ortiqcha zo'riqish, vaqt va materialni tejab ishlatishga imkon beruvchi texnologiyalarni tanlashni; v) o'zining toliqmasdan ishlashini ta'minlovchi texnologiyalarni tanlashni; g) buyumni tanlash sifatini yaxshilashni ta'minlovchi operatsiyalar bajarish texnologiyalarini tanlashlarni ko'zda tutadi.

3. Tashkiliy masalalar. Bu masalalar: a) mehnatni muvofiq tashkil qilishni; b) ish joyini muvofiq rejalashtirishni; v) qurol va moslamalardan texnika xavfsizligiga rioya qilgan holda foydalanishni; g) ishni bajarish usullarini takomillashtirishlarni nazarda tutadi.

Mazkur so'z yuritilgan o'quvchilar yaratuvchan ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari o'z navbatida ularni amalga oshirishning o'ziga xos rejasini ishlab chiqishni talab qiladi. Tajribalarning ko'rsatishicha ishni to'g'ri rejalashtirishda quyidagi omillarni e'tiborga olish lozim bo'ladi:

1. Zarur moddiy-texnik baza bilan ta'minlash (ish joyi, kerakli asbob-uskunalar, ko'rgazmali vositalar).

2. O'quvchilarning qiziqishi, moyilligi va qobiliyatiga ko'ra to'garaklarga tanlab olish;

3. To'garakda mashg'ulot o'tkazishning shakllari va usullarini muvofiq tashkil qilish (guruhiy, zvenoli, individual, so'zlab berish, bayon qilish, namoyish qilish, texnik masala yechish, ijodkorlik o'yinlari, trening, izlanish strategiyasi va hokazo);

4. Ko'rgazma, ko'rik-tanlovlarni tashkil qilish va yakun yasash.

Yaratuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish deganda o'quvchilarning berilgan ijodkorlik masalalarini yechishdagi amaliy vazifalarni bajarish bilan bog'liq ketma-ketliklardan oqilona foydalanishga o'rgatishni tushiniladi. Barcha so'z yuritilgan ijodkorlik ishlari masalalari yechimi va ularni rejalashtirishlar o'z navbatida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning

tashkiliy-pedagogik jihatlarini o'zida mujassamlaydi. Ushbu tashkiliy pedagogik jihatlar doirasida o'quvchilar har xil ob'ektlarda faoliyat ko'rsatadilar. Ammo ular uchun har xil bo'lgan texnik ijodkorlik ishlari mazmuni va bajarilishi ketma-ketligi esa taxminan bir xildagi bosqichlarni taqozo etadi. Yuqorida aytilganlarni hisobga olganda bu vazifalarni bajarish ning quyidagi ketma-ketligi maqsadga muvofiq bo'lib, uni bajarish bosqichlariga:

1. Topshiriq (ishning maqsadiga qo'yilgan talabni oydinlashtiradi);
2. Muammoni qo'yish (Nima noxush edi?, nega shunday?, nima qilmoq kerak? degan savollarga javob berish talab qilinadi);
3. Taklif qilinayotgan g'oya farazni asoslash. Uni tekshirib ko'rish bo'yicha taxminiy tajribalar o'tkazish;
4. Taklif qilingan variantlarni muhokama qilish va eng muvofiq'ini tanlash, uning prinsipial chizmasini ishlab chiqish;
5. Buyum, asboblarni tayyorlash;
6. Sinab ko'rish va muhokamadan o'tkazish;
7. Nuqsonlarni bartaraf qilish va tayyorlash;
8. Undan amalda foydalanishga tatbiq etish;
9. Hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirishlar kiradi.

Yuqorida bayon etilganlarga asosan o'quvchilar yaratuvchan ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari bosh yo'nalishlariga quyida gilarni kiritish mumkin:

-zamonaviy xalq hunarmandchiligiga oid tamoyillar haqidagi bilimlar bilan o'quvchilarni qurollantirish va shu asosda fikrlashini kengaytirish;

-o'quvchilarda bilimlarini ijodkorlik oid yaratuvchanlik masalalarini hal etish uchun qo'llash qobiliyatini bilim hamda fikriy-tafakkurini rivojlantirish;

-eng ko'p tarqalgan ijodkorlik masalalarini yechish usul va tamoyillarining mohiyatini o'quvchilarda hosil qilish;

-jamiyatga xos shaxsiy ma'naviy sifatlarni shakllantirish, tashabbuskorlik, o'z ishiga ishonchlik sinchkovlik ruhida qarash va tanqidiy munosabatda yondoshish.

Ijodkorlik jarayonining yuqorida ko'rsatilgan texnologiyalari tizimi majmuasi o'quvchilar yaratuvchan ijodkorligini rivojlantirishga oid jarayonni tashkil qiladi va xalq hunarmandchiligi buyumlari oddiy shakllaridan universal shakllarini yaratish usullari va funksiyalarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Bu esa o'quvchilarda chuqur fikrlashni, tafakkurni, fundamental va individual bilimlarni, ijodkorlikda amaliy masalalarni tez va oqilona yecha olish ko'nikma hamda malakalarni faollashtirish jarayoni samaradorligini oshirishda asosiy vosita hisoblanadi.

Mazkur aytilganlardan ko‘rinadiki o‘quvchilarning hunarmandchilik ka oid ijodkorligi ham boshqa har qanday fanlar faoliyati singari o‘z predmeti natijalariga ega, ya’ni masalan, o‘quvchi u yoki bu hunarmandchilik buyumiga oid yechimni ijobiy hal qilib, ma’lum uy-ro‘zg‘or yoki o‘quv-laboratoriya jarayonidagi biron buyum, moslamani takomillashtirish natijasiga erishishi mumkin. Bu esa shubhasiz, o‘quvchilar ijodkorligi predmeti natijalarining, inlab ishlab chiqarish jarayoniga o‘xshashligini va uni muvofiq boshqarish tizimi bo‘lishi zarurligini taqozo etadi, buni quyidagicha izohlash mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Botarishev A.V. Odarennost kak sistemnoe kachestvo psixika, opredelya yuŝee tvorcheskie sposobnosti i kreativnosti v sovremennoy obrazo vatelnoy srede: opyt, problemy, perspektivy. Internet – konferensii. Chast 2- Omsk, 2013 str. 9-13.
2. Milyuxina S.L. Razvitie kreativnogo myshleniya mladshix shkolnikov kak sredstvo aktivizatsii ix poznavatelnoy deyatelnosti. Internet – konferensii. Chast 2- Omsk, 2013 str. 46-48.
3. S.M.Bulatov “O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati”. “Mehnat”. – T.: 1991y.
4. Mahmudov Yu.G‘., Qodirov E.X. O‘quvchilarda hunarmandchilik kasblariga fanlararo qiziqishni shakllantirish. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Dizayn Press, 2011. – 32 b.
5. Tagaev X. U. K. Tolipov. Pedagogicheskie osnovy sovershenstvovaniya tvorcheskoy lichnosti. Metodicheskoe posobie. Institut sredstv obucheniya Rossiyskaya akademiya obrazovaniya. – 1993.
6. Umarov R. T. va boshqalar. “Texnil ijodkorlik va dizayn” fanidan laboratoiya –amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishga oid uslubiy ko‘rsatma. Sangzor-2005, 44 b.